

## INGLIZ TILIDAGI ARABIY O'ZLASHMALARNING ASSIMILYATSIYA DARAJASI

Uzoqboyeva Ra'no Anvarjon qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [ranoanvarovna98@gmail.com](mailto:ranoanvarovna98@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20792526>

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz tilidagi arabiy o'zlashmalarning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuv darajasi tahlil qilinadi. Assimilyatsiya jarayoni fonetik-grafik, morfologik, semantik va funksional mezonlar asosida yoritilib, arabizmlarning to'liq, qisman va assimilatsiyalanmagan ko'rinishlari aniqlanadi. Tadqiqotda arabiy birliklarning ingliz tilida milliy leksik qatlamga singishi, ayrim hollarda esa begona madaniy belgilarini saqlab qolishi misollar asosida ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** arabiy o'zlashmalar, assimilatsiya, adaptatsiya, integratsiya, varvarizm, ekzotizm, kalka, ingliz tili.

## СТЕПЕНЬ АССИМИЛЯЦИИ АРАБСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация:** В статье рассматривается степень адаптации арабских заимствований в системе английского языка. Процесс ассимиляции анализируется на основе фонетико-графических, морфологических, семантических и функциональных критериев. На конкретных примерах раскрываются полностью ассимилированные, частично ассимилированные и неассимилированные арабизмы.

**Ключевые слова:** арабские заимствования, ассимиляция, адаптация, интеграция, варваризм, экзотизм, калька, английский язык.

## THE DEGREE OF ASSIMILATION OF ARABIC LOANWORDS IN ENGLISH

**Annotation:** The article examines the degree of adaptation of Arabic loanwords in the English language. The process of assimilation is analyzed according to phonetic-graphic, morphological, semantic and functional criteria. The study identifies fully assimilated, partially assimilated and non-assimilated Arabic units in English and illustrates their linguistic status with examples.

**Key words:** Arabic loanwords, assimilation, adaptation, integration, barbarism, exoticism, calque, English language.

### **Kirish**

Til kontaktlari natijasida yuzaga kelgan leksik o'zlashmalar qabul qiluvchi tilga kimgach, turli darajada fonetik, morfologik, semantik va stilistik moslashuv jarayonidan o'tadi. Mazkur jarayon tilshunoslikda assimilatsiya deb yuritilib, u tilning yangi birliklarni o'zlashtirish qobiliyatini hamda bu birliklarning qabul qiluvchi til tizimida qanchalik barqaror va faol ishlatilishini ko'rsatadi. Assimilyatsiya darajasi, odatda, fonetik-grafik moslashuv, morfologik integratsiya, so'z yasash imkoniyati va semantik umumlashuv kabi mezonlar orqali aniqlanadi.

Ingliz tilidagi arabiy o'zlashmalar mazkur jarayonni yoritish uchun muhim material hisoblanadi. Chunki arab tilidan kirgan birliklar ingliz tiliga turli tarixiy davrlarda, ko'pincha vositachi tillar orqali kirib kelgan. Ularning ayrimlari bugungi kunda ingliz tilining oddiy leksik qatlamiga to'liq singib ketgan bo'lsa, boshqalari diniy, madaniy yoki stilistik belgilarini saqlab qolgan. Shu jihatdan arabizmlarning assimilatsiya darajasini o'rganish ingliz tili leksik tizimining ochiqligi, moslashuvchanligi va madaniyatlararo aloqalar ta'sirida boyishini aniqlash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Tilshunoslikda o'zlashma birliklarning moslashuvi "assimilyatsiya", "adaptatsiya", "integratsiya" va "o'zlashtirish" terminlari bilan izohlanadi. Sh. Poplack o'zlashma jarayonining ko'p qirraliligini ta'kidlab, dastlabki bosqichlarda xorijiy birliklarning fonetik shakli va morfologik tuzilishi qabul qiluvchi til

me'yorlariga to'liq mos kelmasligini qayd etadi [1]. Bu holat o'zlashma birliklarning til tizimiga bosqichma-bosqich singib borishini ko'rsatadi.

I. V. Arnold o'zlashgan leksikani o'zlashtirilish darajasiga ko'ra uch guruhga ajratadi: to'liq moslashgan, qisman moslashgan va umuman moslashmagan birliklar [2]. To'liq o'zlashgan birliklar manba tildan uzilib, qabul qiluvchi til tizimida mustaqil semantik birlik sifatida shakllanadi. Qisman moslashgan birliklarda ayrim fonetik, grafik yoki madaniy belgilar saqlanadi. Assimilyatsiyalanmagan birliklar esa matnlarda chet til unsuri sifatida namoyon bo'ladi.

L. P. Krysin o'zlashtirilayotgan so'zning qabul qiluvchi til tizimida integratsiyalanishini strukturaviy va semantik sathlar bilan bog'laydi [3]. Strukturaviy moslashuv fonetik-grafik o'zgarishlar, grammatik kategoriyalarga moslashish va so'z yasalişida ishtirok etish orqali yuzaga chiqadi. Semantik moslashuv esa yangi birlikning qabul qiluvchi til leksik tizimida o'z ma'no doirasini aniqlashi, toraytirishi yoki kengaytirishi bilan bog'liq.

E. Haugen o'zlashmalarni asl o'zlashmalar, gibrid o'zlashmalar, semantik kengayishlar va yaratmalar tarzida izohlaydi [4]. Ushbu qarash arabiy o'zlashmalarni nafaqat tayyor leksema sifatida, balki ingliz tilida yangi ma'no yoki yangi birikma hosil qiluvchi element sifatida ham tahlil qilishga imkon beradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada tavsifiy, komponent, semantik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilida qo'llanadigan arabiy kelib chiqishga ega leksik birliklar tanlandi. Ular assimilatsiya darajasiga ko'ra uch asosiy guruhda tahlil qilindi: 1) to'liq assimilatsiyalangan arabizmlar; 2) qisman assimilatsiyalangan birliklar; 3) assimilatsiyalanmagan yoki chet til unsuri sifatida saqlangan birliklar. Shuningdek, varvarizm, ekzotizm va kalka hodisalari arabiy o'zlashmalar misolida izohlandi.

### **Natijalar va ularning tahlili**

Ingliz leksik fondidagi ayrim arabiy birliklar tilga shu darajada chuqur singib ketganki, ularni mahalliy so'z qatlamidan farqlash ba'zan qiyin. Masalan, algebra,

algorithm, zero kabi ilmiy atamalar, coffee, sugar, alcohol, cotton kabi kundalik hayotga oid birliklar, shuningdek, safari, sofa, mattress, magazine, candy, orange kabi soʻzlar arab tilidan kelib chiqqan boʻlsa-da, bugungi kunda ingliz tilining uzviy qismi sifatida qabul qilinadi.

Toʻliq assimilatsiyalangan arabizmlar ingliz tilining imlo, talaffuz va grammatik meʼyorlariga moslashgan boʻladi. Ular ingliz tilida odatiy koʻplik shaklini qabul qiladi, sintaktik jihatdan erkin qoʻllanadi va koʻpincha soʻz yasash jarayonida ham ishtirok etadi. Masalan, alcohol, sugar, cotton, coffee, lemon, orange, saffron, syrup, sofa, magazine, tariff, admiral, arsenal, algebra, algorithm, alkali, zenith, nadir, azimuth, hazard kabi birliklar ingliz tilida begona element sifatida sezilmaydi.

Mazkur birliklarning koʻpchiligi ingliz tiliga bevosita emas, balki vositachi tillar orqali kirgan. Masalan, sugar arabcha sukkar shaklidan Yevropa tillari vositasida, coffee arabcha qahwa shaklidan turkcha kahve orqali, sofa esa arabcha suffa shaklidan turk va fransuz tillari orqali ingliz tiliga oʻtgan. Vositali oʻzlashuv natijasida bu birliklar ingliz tiliga allaqachon moslashgan fonetik-grafik shaklda kirib kelgan va shuning uchun tez assimilatsiyalangan.

Semantik integratsiya jarayonida ayrim arabizmlar dastlabki maʼnosi doirasidan chiqib, qoʻshimcha maʼno qatlamlarini hosil qilgan. Masalan, zero matematik termin sifatida kirgan boʻlsa-da, bugungi ingliz tilida zero tolerance kabi birikmalarda koʻchma va baholovchi maʼno kasb etadi. Sugar soʻzi esa “shakar” maʼnosidan tashqari, norasmiy nutqda mehr-muhabbatni ifodalovchi murojaat shakli sifatida ham qoʻllanadi. Bu holat arabiy oʻzlashmalarning ingliz tili semantik tizimida faol qayta ishlanganini koʻrsatadi.

Qisman assimilatsiyalangan arabizmlar oʻzining ayrim begona belgilarini saqlab qolgan holda ingliz tili grammatik tizimiga moslashadi. Masalan, Islamism, Islamist, jihadist, sharia-based, halal-food, hijab-style, Sufi-inspired, Quranic text kabi birliklarda arabcha ildiz inglizcha affiks yoki sintaktik model bilan birikib, yangi maʼno hosil qiladi. Bunday birliklar gibrid oʻzlashmalar sifatida baholanishi

mumkin, chunki ular manba tilga mansub semantik yadro va qabul qiluvchi tilga xos grammatik vositalarning qo'shilishi asosida shakllanadi.

Arabiy o'zlashmalar orasida semantik kengayishga uchragan birliklar ham alohida ahamiyatga ega. Imam dastlab diniy rahbar ma'nosida o'zlashgan bo'lsa, ingliz tilida ayrim kontekstlarda "community leader" yoki "mosque leader" ma'nolarida ham qo'llanadi. Jihad arab tilida "kurash", jumladan, ruhiy-ma'naviy kurashni bildirsa, ingliz media-diskursida ko'pincha siyosiy yoki salbiy konnotatsiyalar bilan qo'llanishi mumkin. Fatwa esa aslida diniy-huquqiy qaror ma'nosini anglatganda, ingliz matbuotida ba'zan keskin diniy hukm sifatida talqin qilinadi.

Kalka hodisasi arabiy birliklarning ingliz tiliga mazmuniy model asosida o'tishini ko'rsatadi. Masalan, House of Islam birikmasi arabchadagi dar al-Islam ifodasining tarjimai, People of the Book esa ahl al-kitab birikmasining inglizcha ekvivalenti sifatida ishlatiladi. Day of Judgment, Night of Power, Straight Path va Pillars of Islam kabi birikmalar ham arab-islamiy konseptlarning ingliz tilida tarjima modeli orqali ifodalanishiga misol bo'ladi. Bunda o'zlashuv tayyor fonetik shakl orqali emas, balki semantik qolip orqali yuzaga chiqadi.

Assimilyatsiyalanmagan birliklar ingliz tilida varvarizm yoki ekzotizm sifatida namoyon bo'ladi. Varvarizmlar qabul qiluvchi til me'yorlariga to'liq singmagan, ko'pincha transliteratsiya asosida ishlatiladigan birliklardir. Masalan, adhan, aqiqah, barakah, dhikr, du'a, ghusl, hadith, hijra, ijma, isha, jannah, khutbah, mahr, masjid, muadhdhin, mu'min, qiyamah, salah, sawm, shirk, sunnah, tawhid, taqwa, umrah, wudu, zikr kabi so'zlar fonetik va grafik jihatdan begona tusini saqlaydi.

Ekzotizmlar esa ma'lum xalq, din yoki madaniyatga xos realiyalarni ifodalovchi birliklardir. Ularning begonaligi shaklda emas, balki mazmunda, ya'ni milliy-madaniy rangdorligida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi gazelle, henna, saffron, safari, sherbet, sultan, surah, talisman, zenith, azimuth, amber, artichoke,

azure kabi birliklar tarixiy jihatdan arabcha manba bilan bog'liq bo'lib, ayrim hollarda sharqona madaniy konnotatsiyani ham saqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, arabiy o'zlashmalar ingliz tilida uch xil taqdirni boshdan kechiradi: birinchi guruh to'liq moslashib, milliy leksik qatlamga singib ketadi; ikkinchi guruh qisman moslashib, ayrim fonetik, grafik yoki madaniy belgilarini saqlaydi; uchinchi guruh esa umuman yoki deyarli moslashmay, transliteratsiya qilingan chet element sifatida qo'llanadi. Bu holat ingliz leksik tizimining dinamik, ochiq va madaniyatlararo ta'sirlarga moslashuvchan ekanini tasdiqlaydi.

### **Xulosalar**

Ingliz tilidagi arabiy o'zlashmalarning assimilatsiya darajasini tahlil qilish ularning qabul qiluvchi til tizimida turlicha maqomga ega ekanini ko'rsatdi. To'liq assimilatsiyalangan birliklar ingliz tilining fonetik, grafik, grammatik va semantik me'yorlariga moslashib, oddiy leksik qatlamga singib ketgan. Qisman assimilatsiyalangan arabizmlar esa inglizcha affikslar, sintaktik modellar va semantik kengayishlar orqali faol qo'llanadi, biroq manba til bilan aloqasini ham saqlab qoladi.

Assimilyatsiyalanmagan birliklar ko'proq diniy, madaniy yoki etnografik realiyalarni ifodalab, varvarizm va ekzotizm sifatida namoyon bo'ladi. Ular ingliz tilida begona madaniy belgi, uslubiy vosita yoki maxsus termin sifatida ishlatiladi. Kalka hodisasi esa arabiy konseptlarning ingliz tilida semantik tarjima orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, arabiy o'zlashmalar ingliz tili leksikasini nafaqat miqdor jihatdan boyitgan, balki uning konseptual, madaniy va pragmatik imkoniyatlarini ham kengaytirgan. Shu sababli ularning assimilatsiya darajasini o'rganish kontakt lingvistika, leksikologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Poplack S. Borrowing: Loanwords in the Speech Community and in the Grammar. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 246 p.
2. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – 295 с.
3. Крысин Л. П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – 208 с.
4. Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing // Language. – 1950. – Vol. 26, № 2. – P. 210–231.
5. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1985. – 399 с.
6. Реформатский А. А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.
7. Durkin P. Borrowed Words: A History of Loanwords in English. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 512 p.
8. Online Etymology Dictionary. – URL: <https://www.etymonline.com/>